



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA’LIMI VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOT VA MOLIYA
VAZIRLIGINING
QARORI**

**Milliy baholash tizimi muvofiq bo‘lishi lozim bo‘lgan xalqaro standartlar,
ta’lim sohasida xizmat ko‘rsatuvchi vakolatli xalqaro tashkilotlar, xalqaro tan
olingan va milliy baholash tizimida berilgan sertifikatlar (ularning
kombinatsiyasi) ro‘yxati hamda har oylik ustama olish uchun ularning eng
kam darajasini belgilash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022-2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida” PF-134-son Farmoni hamda Adliya vazirligining 2023-yil 3-fevraldagi 16/7-3/5-216-son taqdimnomasi ijrosini ta’minlash, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlarni yuqori turuvchi qonunchilik hujjatlariga muvofiqlashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi **qaror qiladi:**

1. Quyidagilar:

Milliy baholash tizimi muvofiq bo‘lishi lozim bo‘lgan xalqaro standartlar ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq;

Ta’lim sohasida xizmat ko‘rsatuvchi vakolatli xalqaro tashkilotlar ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq;

Xalqaro tan olingan va milliy baholash tizimida berilgan sertifikatlar (ularning kombinatsiyasi) ro‘yxati 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Belgilansinki, mazkur qaror kuchga kirgunga qadar 2022-yil 29-iyuldagi 34-q/q, 15-xx sonli qo‘shma qarorda keltirilgan xalqaro tan olingan va milliy baholash tizimida berilgan sertifikatlariga ega pedagog xodimlarning ustamalari qonunchilik hujjatlarida belgilangan muddatlarga qadar saqlanib qoladi.

3. Quyidagi holatlarda:

verifikatsiya yoki sertifikat berishga vakolatli (xorijiy yoki milliy) tashkilotga yuborilgan so‘rov natijasiga ko‘ra sertifikatning haqiqiy emasligi aniqlanganda;

vakolatli (xorijiy yoki milliy) tashkilotga yuborilgan so‘rovga javob olinmaganda yoki sertifikatda ko‘rsatilgan imtihon natijasining haqiqiyliги va

to'g'riligi tasdiqlanmaganda mazkur sertifikatlar bo'yicha ustamalar to'lab berilmaydi.

4. Hududiy maktabgacha va maktab ta'limi bo'linmalari mazkur qaror bilan tasdiqlangan ilovalarga muvofiq sertifikatlarga ega pedagog kadrlarga 2023-yil 1-avgustdan boshlab qonunchilikda belgilangan tartibda har oy qo'shimcha ustama to'lab borilishini nazoratga olsin.

5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi va Moliya vazirligining 2022-yil 29-iyuldagi 34q/q va 15-xx-son "Milliy baholash tizimi muvofiq bo'lishi lozim bo'lgan xalqaro standartlar, ta'lim sohasida xizmat ko'rsatuvchi vakolatli xalqaro tashkilotlar, xalqaro tan olingan va milliy baholash tizimida berilgan sertifikatlar (ularning kombinatsiyasi) ro'yxati hamda har oylik ustama olish uchun ularning eng kam darajasini belgilash to'g'risida"gi qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

6. Mazkur qaror 2023-yil 1-avgustdan kuchga kiradi.

**Maktabgacha va maktab
ta'limi vaziri**



X. Umarova

Toshkent sh.,

2023-yil "28"- iyul,
25 k/k -son

Iqtisodiyot va moliya vaziri



Sh. Kudbiyev

Toshkent sh.,

2023-yil "28"- iyun,
4-xx -son

O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi
hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining
2023-yil "28"-iyul dagi
25-k/v va 4-kx-son qaroriga
1-ILOVA

Milliy baholash tizimi muvofiq bo'lishi lozim bo'lgan xalqaro standartlar RO'YXATI

1. CEFR - chet tilini bilish darajasini baholovchi umumyevropa kompetensiyalari.
2. The Standards and guidelines for quality assurance in the European Higher Education Area (ESG) - Yevropa oliy ta'lim hududida sifat ta'minoti standartlari va talablari.
3. UNICert - Universitetlararo tillarni o'qitishni akkreditatsiyalash va sertifikatsiyalash tizimi.
4. ISO 21001 - ta'limni boshqaruvning xalqaro standarti.
5. The International Society for Technology in Education (ISTE) standards – Ta'limda texnologiyalar xalqaro jamiyati standartlari.
6. ISO/IEC 17021-1:2015 — Axborot xavfsizligini boshqarish sertifikat.

O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi
hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining
2023-yil "28"-iyul dagi
25-kr va 4-xx-son qaroriga
2-ILOVA

**Ta'lim sohasida xizmat ko'rsatuvchi vakolatli xalqaro tashkilotlar
RO'YXATI**

1. Association to Advance Collegiate Schools of Business
2. Educational Testing Services (ETS)
3. Graduate Management Admission Council (GMAC)
4. National Institute for International Education (NIIED)
5. Cambridge Assessment
6. British Council
7. IDP Education Limited
8. IQAA – Independent Agency for Quality Assurance in Education
9. Association of Language Centres, Language Teaching Institutes and Institutes of Foreign Languages (Arbeitskreis der Sprachenzentren, Sprachlehrinstitute und Fremdspracheninstitute, AKS)
10. The UNESCO Institute for Lifelong Learning (UIL)
11. Center of language education and cooperation (CHINA)
12. Asian College of Teachers
13. Teachers College Columbia University
14. American Council on the Teaching of Foreign Languages
15. STEM Educational Research & Credentialing
16. Japan Foundation
17. Pearson Education
18. Xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlarning (THE, QS, ARWU) reytingida TOP – 1000 talikka kiradigan ta'lim muassasalari
19. France's national Ministry of Education (Institut français de l'Ouzbékistan)
20. German education authorities and the Foreign Office (Goethe Institute)
21. Министерство науки и высшего образования Российской Федерации
22. Astrum IT Academy
23. Microsoft Education

O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi
hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining
2023-yil "28"-iyul dagi
25-x/k va 4-xr-son qaroriga
3-ILOVA

**Xalqaro tan olingan va milliy baholash tizimida berilgan sertifikatlar
(ularning kombinatsiyasi)
RO'YXATI**

T/r	Xalqaro sertifikatlar	Ustama olish uchun sertifikatlarning eng kam darajasi	Milliy sertifikatlar	Ustama olish uchun sertifikatlarning eng kam darajasi
ANIQ FANLAR				
Matematika				
1	GRE ¹ (Quantitative Reasoning)	155 ball		
2	GMAT ² (Graduate Management Admission Test) Quantitative Reasoning	37 ball		
3			Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan amalga oshiriladigan umumta'lim fanlari bo'yicha sertifikatlash va bilim darajasini aniqlash sertifikati	80
4	SAT subject score	640		
Informatika				
1	A levels	A		
2	Microsoft Certified Educator (MCE)	80%		
3			Astrum Certified IT Educator	80%
Geografiya				
1x			Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan amalga oshiriladigan umumta'lim fanlari	80

			bo'yicha sertifikatlash va bilim darajasini aniqlash sertifikati	
TABIY FANLAR				
Fizika				
1	GRE ¹ (Quantitative Reasoning)	155 ball		
2			Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan amalga oshiriladigan umumta'lim fanlari bo'yicha sertifikatlash va bilim darajasini aniqlash sertifikati	80
3	SAT subject score	640		
Biologiya				
1	GRE ¹ (Quantitative Reasoning)	155 ball		
2			Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan amalga oshiriladigan umumta'lim fanlari bo'yicha sertifikatlash va bilim darajasini aniqlash sertifikati	80
3	SAT subject score	640		
Kimyo				
1	GRE ¹ (Quantitative Reasoning)	155 ball		
2			Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan amalga oshiriladigan umumta'lim fanlari bo'yicha sertifikatlash va bilim darajasini aniqlash sertifikati	80
3	SAT subject score	640		
IJTIMOY FANLARI				
Tarix				
1			Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan amalga	80

			oshiriladigan umumta'lim fanlari bo'yicha sertifikatlash va bilim darajasini aniqlash sertifikati	
FILOLOGIYA FANLARI				
Ona tili va adabiyot (o'zbek tili va adabiyoti, rus tili va adabiyoti, qoraqalpoq tili va adabiyoti)				
1			Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan amalga oshiriladigan umumta'lim fanlari bo'yicha sertifikatlash va bilim darajasini aniqlash sertifikati ³	80
Rus tili				
1	Test of Russian as a Foreign language (TORFL) ⁴	C1		
2	Тест по русскому языку как иностранному (TRKI) ⁴	C1		
Ingliz tili				
1	International English Language Testing System (IELTS)	7.0		
2	Test of English as a Foreign Language (TOEFL iBT)	95		
3	Test of English as a Foreign Language (TOEFL iTP)	620 Speaking – 64		
4	Cambridge Assessment English	CAE 180		
5	Teaching English for Speakers of Other Languages (TESOL) ⁵	Pass		
6	Teaching English as a Foreign Language (TEFL) ⁵	Pass		
7	Teaching English as a Second Language (TESL) ⁵	Pass		
8	Certificate in English Language Teaching to Adults (CELTA) ⁶	Pass		

9	Diploma in Teaching English to Speakers of Other Language (DELTA) ⁶ Module 1 Module 2 Module 3	Pass Pass A Pass B		
10	TKT Module 1 Module 2 Module 3	3-4 Band		
11			Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan amalga oshiriladigan chet tilini bilish darajasini aniqlash sertifikatini	C1
Fransuz tili				
1	Diplôme Approfondi de Langue Française (DALF)	C1		
2	Test de Connaissance du Français (TCF)	C1		
3			Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan amalga oshiriladigan chet tilini bilish darajasini aniqlash sertifikatini	C1
Nemis tili				
1	Goethe-Zertifikat	C1		
2	Deutsches Sprachdiplom (DSD II)	C1		
3	Test Deutsch als Fremdsprache (Test DAF)	TDN 5 (C1.2)		
4			Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan amalga oshiriladigan chet tilini bilish darajasini aniqlash sertifikatini	C1
Arab tili				
1	The Arabic Language Proficiency Test, Arabic Proficiency Test (ALPT, APT, E-TOAFL, American Council on the	C1		

	Teaching of Foreign Languages (ACTFL)			
2	AT Tanal Al Arabi	C1		
3			Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan amalga oshiriladigan chet tilini bilish darajasini aniqlash sertifikatini	C1
Xitoy tili				
1	Hanyu Shuiping Kaoshi (HSK)	HSK5		
2			Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan amalga oshiriladigan chet tilini bilish darajasini aniqlash sertifikatini	C1
Yapon tili				
1	Japanese Language Proficiency Test (JLPT)	N1		
2			Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan amalga oshiriladigan chet tilini bilish darajasini aniqlash sertifikatini	C1
Koreys tili				
1	Test of Proficiency in Korean (TOPIK II)	Level 5		
2			Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan amalga oshiriladigan chet tilini bilish darajasini aniqlash sertifikatini	C1
Boshlang'ich ta'lim (matematika va ona tili va adabiyot (o'zbek tili va adabiyoti, rus tili va adabiyoti, qoraqalpoq tili va adabiyoti))				
1			Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan amalga oshiriladigan umumta'lim fanlari bo'yicha sertifikatlash va bilim darajasini	60

			aniqlash sertifikatini (matematika) ⁷	
2			Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan amalga oshiriladigan umumta'lim fanlari bo'yicha sertifikatlash va bilim darajasini aniqlash sertifikatini (ona tili va adabiyot (o'zbek tili va adabiyoti, rus tili va adabiyoti, qoraqalpoq tili va adabiyoti) ⁷	60

Izoh:

1) GRE (Quantitative Reasoning) – Quantitative Reasoning bo'yicha ballar inobatga olinadi. 2011-yilda GRE imtihoni takomillashtirilgan bo'lib, Quantitative Reasoning bloki – amalda eng yuqori 800 balldan, yangi tahrirda 170 ballga o'zgartirilgan. Pedagog xodimlar orasida eski tahrirdagi GRE Quantitative Reasoning blokidan ball olgan hollar mavjud bo'lganda, 700 va undan yuqori ball ustama olish uchun yetarli deb qabul qilinadi.

2) GMAT (Graduate Management Admission Test) – Quantitative Reasoning bo'yicha ballar inobatga olinadi.

3) Ushbu sertifikatlar quyidagi pedagoglar uchun amal qiladi:

- Ona tili va adabiyoti fani sertifikatini olgan ona tili va adabiyoti hamda o'zbek tili (davlat tili) fanidan dars beruvchi pedagoglar uchun;

- Rus tili va adabiyoti fani sertifikatini olgan milliy hamda rus tili sinflarida dars beruvchi pedagoglar uchun;

- Qoraqalpoq tili va adabiyoti fani sertifikatini olgan qoraqalpoq tili va adabiyoti hamda qoraqalpoq tili (davlat tili) fanidan dars beruvchi pedagoglar uchun.

4) Тест по русскому языку как иностранному (TRKI) va Test of Russian as a Foreign language (TORFL) sertifikatini ta'lim tili rus tili bo'lmagan sinflarda dars beruvchi rus tili fani pedagog xodimlari uchun amal qiladi.

5) Barcha TEFL (Teaching English as a Foreign Language TEFL), TESL (Teaching English as a Second Language), TESOL (Teaching English for Speakers of Other Languages) sertifikatlari:

a) quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- kamida 100 soatlik o'qituvchi (trener) bilan kontakt soatlar va kamida 40 soatlik o'qituvchi pedagogik amaliyotini qamrab olishi, bunda praktikum qismi instruktor tomonidan kuzatilib, baholanishi;

- TEFL, TESL hamda TESOL kurslariga o'qishga qabul qilinuvchilarning til darajasiga talablar (kamida CEFR B2) belgilanishi va mazkur talabning bajarilishini Vazirlik tomonidan tekshirish imkonini mavjudligi;

- sertifikat aynan qaysi ta'lim tashkiloti tomonidan berilganligi haqidagi ma'lumotning mavjudligi;

b) quyidagi tashkilotlarning biri tomonidan amalga oshirilgan bo'lishi lozim:

- sertifikat beruvchi tashkilotning vakolatli organlar tomonidan akademik daraja berish vakolatiga ega tashkilot sifatida tan olinganligi;

- sertifikat xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlarning (THE, QS, ARWU) reytingida TOP – 1000 talikka kiradigan OTM tomonidan berilgan bo'lishi lozim.

6) DELTA, CELTA sertifikatini olgan shaxsning xorijiy til bilish darajasi kamida C1 darajada bo'lishi; yoki, mazkur sertifikat xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlarning (THE, QS, ARWU) reytingida TOP – 1000 talikka kiradigan OTM tomonidan berilgan bo'lishi lozim.

7) Matematika va Ona tili va adabiyot (o'zbek tili va adabiyoti, rus tili va adabiyoti, qoraqalpoq tili va adabiyoti) fanlaridan olingan sertifikatlar boshlang'ich sinflardagi mutaxassislarining aynan shu fandagi dars soatlari uchun amal qiladi.

Barcha sertifikatlar o'zi dars beradigan fani bo'yicha tegishli darajadagi sertifikatga ega umumta'lim maktablarda faoliyat yuritayotgan (shu jumladan, soatbay va o'rindosh) pedagog xodimlarga (shu jumladan, maktab direktori va direktor o'rinbosarlariga ham) har oylik qo'shimcha ustama to'lash nazarga tutilgan.

Ta'lim sohasida xizmat ko'rsatuvchi vakolatli xalqaro tashkilotlarning rasmiy ro'yxatidan o'tgan test markazlariga (authorized test centers) tashrif buyurmasdan, tashkilot vakillarining bevosita nazorati ostida topshirmasdan, masofadan (Home Edition, Remote testing va boshqa) onlayn olingan sertifikatlar uchun ustama to'lanmaydi.